

**ЭКОНОМИКА И НАУКА В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ.
РАЗВИТИЕ НОВЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ**

**DETALLARNING ICHKI STRUKTURASINI O'RGANISH VA METALLOGRAFIK
MIKROSKOPNING TEXNIK KO'RSATKICHLARI**

Raxmonov Muhammadrasul Raximjon o'g'li
“Materialshunoslik va yangi materiallar texnologiyasi”
kafedrasi stajyor tadqiqotchisi
Andijon mashinasozlik instituti.

c Metalning makrostrukturasini aniqlashda namunaga yuzasiga kuchsiz kislota (reaktiv eritma) ta'sir ettiriladi (xurushlanadi), metallarning ayrim komponentlariga reaktiv eritma turlicha ta'sir etgani uchun namuna yuzasida makrorelyef hosil bo'ladi va bunday namuna sirti makroshlif deyiladi. Quyma metallarning makrostrukturasining tuzilishi dendrit holatda bo'ladi va ushbu quyma metall bosim bilan ishlanganda, dendritlar cho'zilishi hisobiga tolalarni hosil qiladi. Bunda o'rganilayotgan metallning makrostrukturasiga qarab, tolalarning yo'nalishini va deformatsiyalanganlik darajasini aniqlash ham mumkin. Maxsus xurushlash (ya'ni reaktiv eritma quyish) usullaridan foydalanib, metallning ichki nuqsonlari (darz, aralashma, g'ovak va boshqalar)ni, bir jinsliligini bilish mumkin. Makrostrukturani o'rganish va tekshirish usuli ilmiy tadqiqot ishlarida va sanoatda qo'llaniladi. Metallarning mikrostrukturasi bu - texnik metallarning barchasi nomuntazam shaklli mayda bo'lgan kristallardan ya'ni donalardan tuzilgan. Ushbu kristallarni elektron mikroskop yoki optik mikroskop yordamidagina ko'rish mumkin. Metalning mikrostrukturasini aniqlash uchun dastlab shu metalldan namuna qirqib olinadi va bir tomoni ko'zgudek yaltiriladi; unga reaktiv eritma ya'ni kuchsiz eritma ta'sir ettiriladi. Natijada namuna sirtida mikrorelyef (mikroshlif) hosil bo'ladi. Agar ushbu mikroshlif mikroskop orqali kuzatilsa, mikrostruktura yaqqol ko'rinadi. Mikrostrukturani o'rganish metallarning sifatini bilishning va baholashning asosiy usullaridan biri hisoblanadi. [1]



1-rasm. Metallografik mikroskop A13.0201-B2

**ЭКОНОМИКА И НАУКА В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ.
РАЗВИТИЕ НОВЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ**

Ushbu A13.0201-B2 metallografik mikroskop metall va qotishmalarning mikrostrukturalarini nurni burchak ostida va to‘g‘ri chiziqli yoruq maydonda nuring qaytishi hisobiga ko‘rish va suratga olishga mo‘ljallangan. [2]

1-jadval

A13.0201-B2 metallografik mikroskopning texnik ko‘rsatgichlari

Parametrlarning nomlanishi	
Okulyarning kattalashtirish darajasi, marta	WF10x/18 мм
Obyektivning kattalashtirish darajasi, marta	10x/0,25; 20x/0,40; 40x/0,60; 100x/ 1,25
Filtrlanishi	4 хил
Yaqinlashtirish darajasi	0,002 мм
Mikroskopning revolver kallagi	4
Ishlash bosqichi	180x150 мм
Nur manbai	6V20W

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi birinchi jild Toshkent 2000-yil.
2. Сталь металлографический метод оценки микроструктуры листов и ленты ГОСТ 5640-68. Издательство стандартов, 1968.